

TONG yulduzi

№39 (66424)
2003 yil
6 oktabr
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarib boshlagan

Quvonch

ELCHIXONA SOVG'ASINI OLGAN USTOZ

Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi Oybek nomli 25- o'rta maktabda Mardon Ochilov, Tursunmurod Sharipov, Norqul Sohibov, Maqsuda Ahmadjonova, Ibodat Eshquvvatova kabi o'z kasbining fidoyi insonlari mehnat qilishadi. Bu muallimlarning bilim sirlarini o'rgatishlari sabab, ilm maskani nafaqat tumanda, balki viloyatda ham alohida tilga olinadi. Toshmirza aka Bekmirzayev ham maktabda 30 yildan buyon o'quvchilarga fransuz tilidan saboq bermoqda. Talabchan ustoz o'zining 5 nafar farzandi kabi yuzlab o'quvchilarini ham komil inson bo'lib yetishishida hissador. Ustozning ikki nafar farzandi shu kasbni egallagan. Maktab hayotida o'z o'rnini va hurmatiga ega Toshmirza aka darsni faqat dasturlargagina tayanib emas, balki siyosiy-iqtisodiy yangiliklar, ko'rgazmali qurollar bilan qiziqarli ravishda o'quvchilar ongiga singdiradi. Shunday hollar bo'ladiki, ba'zida o'tanasiga aytmagan muammosini bolalar o'qituvchisiga ochiq-oydin aytadi. Bunga o'qituvchi va o'quvchi orasidagi samimiy munosabat sabab. Yil boshida viloyatimiz poytaxti Qarshi shahrida, fransuz tili o'qituvchilarining seminar-ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi. Ushbu tanlovda faxrli birinchi o'ringa sazovor bo'lgan Toshpo'lat aka Fransiya elchixonasining 100 dollarlik «Fransuz tili ensiklopediyasi» sovg'asiga musharraf bo'ldi. Ushbu sovg'ani Viktor Gyugo nomidagi Fransiya madaniyat markazi direktor o'rinbosari Jeklen Plessi janoblari topshirdi. Bu bizning maktabimiz uchun katta faxrdir. Ustozim Toshmirza aka Bekmirzayevni quvonchli voqea bilan qutlab, ularga sog'lik, oilaviy totuvlik va bag'ri butunlik tilab qolaman.

Zulxumor JO'RAYEVA,

*Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
Oybek nomli 25 - maktab to'garak rahbari.*

Orzu

IPAKLARDA SEHR BOR

Rang-barang qatim ipaklardan chiroyli kashtalar tikishni bilasizmi? Bu nafis san'at sirlarini menga oyijonim o'rgatganlar. Ularning o'zlari buvimlardan o'rgangan ekanlar. Endigina kashtachilik sir- asrorlarini bilayotgan bo'lsam ham, ular orasida jiyak tikish meni o'ziga rom etdi. Jiyaklar asosan to'nalarning oldi va etagiga, do'ppilarning chetiga qo'yilar ekan. Ular o'zining naqshinkorligi bilan kishini o'ziga jalb etadi. Avval ularni pastki qismi to'qima holida tayyorlanadi, so'ngra ustki qismiga turli xil ipaklardan bezak beriladi. Ba'zi hollarda zar ipaklardan naqshlar, pistonlardan doira, uchburchak va boshqa shakllarda bezaklar ham beriladi. To'g'ri, hali pistonlarni joylashtirishga qiynalaman, lekin albatta o'rganib olaman. Katta bo'lganimda mohir kashtado'z bo'laman. Turli-tuman

kashtalarim kishilar egnida yal- yal tovlanib turishini orzu qilaman.

*Shohsanam
NURMATOVA,
Samarqand viloyati,
Oqtosh shahridagi
65-maktabning
3- «B» sinf
o'quvchisi.*



HAR JUMADA SHANBALIK

Alpomish deb nomlangan mahallamiz Termiz shahrining eng so'lim, ko'rkam go'shalaridan biri. Mahallamiz bolalari ham xuddi Alpomiudek mard, mehnatkash, qizlari Barchinoydek go'zal, xushro'y. Biz juda ahilmiz. Haftaning har juma kunlari shanbalik uyushtirib, mahallamizni yashnatishga o'z

ulushimizni
qo'shamiz.

Aslida - ku,

orastalik ishlarini har kuni bajaramiz: uylarimiz atrofini, bolalar maydonchalarini supurib-sidiramiz. O'g'il bolalar esa keraksiz temir-tersaklarni yig'ib, maktabga olib borishadi. Gullar, ko'chatlar ekish, tagini yumshatib, parvarishlash ishlari ham ularning zimmasida. Mahallamizda joylashgan Alisher Navoiy haykali atrofidagi daraxtlar, gullarni sug'orib, mehr bilan parvarishlaymiz. Bundan bahri-dilimiz

ochilib, charchoqni zumda unutamiz. Hozirgi kunda mahallamizga bir kelsangiz edi, Alisher Navoiy, Alpomish xiyoboni, «Semurg'-Sherzod» savdo markazi, «Paxta bank» binosi atrofini qurshab turgan chamandek gullarni, favvoralarni ko'rib, havas qilgan bo'lardingiz. Jajji ukajonlarimiz yozning issiq kunlarida ana shu favvorada miriqib cho'milishdi, kattalar uning atrofida mazza qilib hordiq chiqarishdi. Mahallamiz bayram kunlari yanada ko'rkamlashib ketadi. Navro'z bayramlarida qilgan sumalaklarimizning totli ta'mi hali ham og'zimizda. Ishqilib barchamizning mo'jaz Vatanimiz bo'lmish Alpomish mahallamizga ko'z tegmasin-da!

*Nargiza HAMZAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
13 - maktabning
8 - «B» sinf o'quvchisi.*



DARAXTLAR HAM YIG'LAYDIMI?

Murodjon 4 yoshda bo'lishiga qaramay, ko'p narsaga aqli yetadi. Bilmagani narsasi haqida kattalardan so'rab, bilib olishga harakat qiladi. Shuning uchun ham Murodjonni qiziquvchan bola, deyishadi.

Bir kuni Murodjon bobosidan:

-Bobojon, daraxtlar ham yig'laydimi?-deb so'rabdi. Shunda bobosi o'ylanib, shunday debdi:

-Sen buni tajriba o'tkazib, bilib olasan.

Murodjon hayratlanib bobosiga qaragan ekan, bobosi esa unga shunday tushuntiribdi:

-Qo'lingga ko'chatni olib ekasan. U o'sgan sayin kuzatasan. Shunda bilib olasan, daraxtlar yig'laydimi, yo'qmi...

Murodjon ertasi kuni xuddi bobosi aytganidek ko'chat olib ekibdi. Ekan ko'chatini har kuni suv quyib parvarishlay boshlabdi. Oradan ikki yil o'tibdi. Bir kuni ertalab qarasa ko'chat quriyotganini ko'rib qolibdi. Murodjonning ko'zlaridan yosh oqib ketibdi. Bir hafta jon-jahdi bilan daraxt tagini chopib, suv quyibdi. Nihoyat, daraxt jonlanibdi. Daraxt deyishimizga sabab ham borda. Chunki ikki yil o'tib Murodjon olti yoshga to'lgan, ko'chat esa daraxt bo'lgandi.

Shularni o'ylab, Murodjon tongda daraxti yoniga kelibdi. Shunda daraxt barglarida bir-ikki tomchi shudring tomchilarini

ko'ribdi. Beixtiyor bobosining oldiga chopib boribdi:

-Bobojon, bobojon, daraxtim yig'layapti, ko'rasizmi?

Bobosi ham Murodjonga qo'shilib yugurib kelibdi. Shudringlarni ko'rgan bobosi:

-Bular ko'z yoshlar emas, aksincha, shodlik yoshlari. Daraxtga yaxshi qarab parvarishlaganing uchun daraxting senga minnatdorchilik bildirayapti... Murodjon shu kuni to'rtta ko'chatni o'z bog'iga o'tkazibdi.

*Sevara TOSHBOLTAYEVA,
Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi
21-o'rta maktabning
8-sinf o'quvchisi.*



2003 - Obod mahalla yili

USTOZ MARG'UBA OPA!

Maktublar, maktublar, maktublar...

Ayollar bor joyda fayz, tarovat hamda sarishtalik bo'lishi tabiiy. Ayollar har bir davrda o'z faolliklari bilan olamni lol qoldirganlar. Qay bir jabhaga ko'z qiringizni tashlamang, ayollar ko'zga tashlanadi.

Xalq Ta'limi maorif sohasida ham jonkuyar ayollar ko'pchilikni tashkil etadi. Ana shunday matonat egasi Toshkent tumanidagi G'.Abdullayev nomli 22-o'rta maktabning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi - Marg'uba opa Hasanova ham katta harflar bilan yoziladigan muhtaram AYOL!

Ustoz ish faoliyati davomida hamkasblarining hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lib, o'quvchilar mehr-muhabbatini qozondi. Chunki o'ta talabchanlik, fidoyilik, jonkuyarlik va samimiylik Marg'uba opaga xos fazilatlaridandir. Ustoz bolaligidan adabiyotga oshno bo'lgan. Uning yozgan she'rlari ham diltortar, jozibali.

«Ustoz» degan ulug' nomga munosib bo'lish uchun doimo izlanish, yangilikka intilish darkor, deydi Marg'uba opa. Zero, hozirgi kun o'qituvchisi har tomonlama yetuk bo'lishi lozim.

Yetuklikka intilish, izlaanish va shogirdlaringiz mehrini qozonish yo'lidagi zahmatlaringiz sizga baxt, omad keltirsin, Marg'uba opa!

*Surayyo REJAPOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
22-o'rta maktab o'qituvchisi.*

MAKTABIM

Bolalik chog'larimda,
Maktabga qo'ydim qadam.
Katta bo'lib ulg'aydim,
Yozish, o'qish o'rgandim.
Mo'tabar muallimim,
Birinchi ustozimdir.
Menga ilk saboq bergan,
Mening-chun tabarrukdir.
Maktab misli bebaho,
Ilm-fanlarga makon.
Uning qadriga yeting,
Udir sho'xliklarga kon.

*Ra'no BAXRIDINOVA,
Jizzax viloyati, Jizzax tumani,
Xalq Ta'limi bo'limiga
qarashli «Nutq» markazi
tinglovchisi.*

MEHR ILA BILIMINGIZ...

Ustozni bejiz mehribon onaga o'xshatishmaydi. Chunki ular o'zlaridagi bor mehmi, bilimini bizga ulashadi. Ba'zan ularni dars tayyorlamay ranjitib qo'ysak ham, ular bizni kechirishadi. Garchi maktabni bitirgan bo'lsam-da, mehdaryo ustozlarimni doim eslab turaman. Aziz birinchi ustozim, menga qalam tutishni o'rgatgan Bahra opani, Nasiba opani, Ma'suda opa, Kozim akalarni alohida mehr bilan eslayman. Ustozlarning jonkuyarligi bo'lmaganida, biz bilim yurtlariga kira olmagan bo'lardik. Poyingizga gullar to'shab, sizga doim ta'zimdamiz, aziz ustozlar. Mehrgingiz ila bilimingiz bizni bir umr yo'ldoshimiz bo'lib qoladi.

*Nodiraxon HOSHIMOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumani, Huvaydo mahallasi.*

ONAJONLAR BOR BO'LSIN

Men baxtliman jahonda,
Vatanim, nurxonam bor.
Bag'ri quyoshdek issiq,
Mehribonim - onam bor.
Men juda baxtli qizman,
Hayot menga qadrdon.
Ishonganim, suyanchim,
Munisginam onam bor.
Baxtinga sog' bo'lsinlar,
Bor bo'lsinlar onalar.
Yetim qolib bo'zlamasin,
Bu dunyoda bolalar.

Faridaxon ABBOS qizi.

OTANGDAN ULUG'

Ustoz!... Mehridaryo kabi cheksiz inson. Ular haqida qancha gapirilsa

oz. Shu sababli qadim-qadimdan ustozlarni otalarimizdek ulug' kishilar deyishadi. Har tong ertalab sinfimizda ustozlarimizni qalbimiz limmo-lim shodlikka to'lib, qarshilaymiz. Ustozlarga juda qiyin deb o'ylayman, axir sinfimizda 30 ta o'quvchi bo'lsa, ularning har birini dilini tushunishi, har bir bolaning ko'ngil kaliti bo'lishi lozim. Biz o'quvchilar hamisha ularning o'gitlariga amal qilsak, aslo kam bo'lmaymiz. O'zim tahsil olayotgan 316- tayanch maktabidagi o'qituvchilarimni juda yaxshi ko'raman. Bizga ta'lim- tarbiya berayotgan ustozlarimga hamisha ta'zimdam.

Ularga xayrli ishlarida baraka tilab, quyidagi she'rimni ustozlarimga bag'ishlayman.

USTOZ OTANGDAN ULUG'

Otam menga non bergan,
Onam esa oppoq sut.
Ustozlar esa hamon,
Bilim bermoqda har on.
Ustozlarim mehnatin,
Bilimim-la oqlayman.
Ularning nasihatini,
Doim dilda saqlayman.

Dilshod IMOMOV,

316-tayanch maktabining 7- «V» sinf o'quvchisi.

O'ZBEKISTON HUR VATAN

O'zbekiston hur Vatan,
Qalbi to'la nur Vatan.
Ilmu fanning o'chog'i,
Baxtga to'la quchog'i.

Yo'limiz to'g'ri, ravon,
Hayotimiz farovon.
Bizni sevgan hamma vaqt,
Yurtboshimizga rahmat!

*Malohat DO'SATOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi
tumanidagi 18 - o'rta maktabning
6 - «V» sinf o'quvchisi.*

KITOBIMNI QO'LDAN QO'YMAIDIM

Mamlakatimizda yuzlab Oliy o'quv yurtlarida yoshlar bilim olmoqda, intilmoqda. Bundan ikki oycha muqaddam minglab yoshlar talaba bo'lish ishtiyoqida Oliy o'quv yurtlariga imtihon topshirishgan edi. Shu jumladan, O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining halqaro jurnalistika fakultetiga ham ko'plab bilimga chanqoq yoshlarimiz imtihon topshirib, bugun esa ularning ma'lum qismi talaba bo'lish baxtiga muvassar bo'lishdi. Birinchi kurs talabalari qanot bog'lab, o'qishga jon-jahdi bilan kirishib ketishgan. Auditoriyaga kirarkanman, partada bosh ko'tarmay kitob mutolaa qilib o'tirgan 1-kurs talabasi Kamolaxon Nurmatovani suhbatga chorladim.

- Kamolaxon, aytingchi, bu yilgi test sinovlari qanday o'tdi? Savollar qiynab qo'ymadimi sizni?

- Biroz bosh qotirishga to'g'ri keldi, biroq, eng avvalo kitobdan, qolaversa, mehribon ustozlarimdan olgan bilimim menga ancha qo'l keldi desam, yanglishmagan bo'laman!

- Davlat granti asosida o'qishga qabul qilinibsiz. Ayrim birovlar «bilim bilan kirib bo'lmaydi», deyishadi. Bunga qanday qaraysiz?

- Boshqalarni bilmadim-u, lekin o'zim kecha-yu kunduz kitobimni qo'ldan qo'ymadim. Mana, ko'rib

turibsizki mehnatim zoye ketmay, yuzaga chiqdi.

Bundan juda mamnunman.

- Men ham sizni talaba bo'lganingiz bilan sidqidildan qutlayman.


- Rahmat!

-Bilasiz, Respublikamizda barchaning sevimli «Tong yulduzi» gazetasi chop etiladi. Ushbu gazetani o'qiysizmi?

- Albatta, «Tong yulduzi» gazetasi sevimli gazetalarimdan biri. Muntazam obuna bo'lib kelyapman. Singillarim bor. Ular bilan mazza qilib o'qiymiz, -deya javob berdi.

Suhbat so'nggida Kamolaxonning o'qishlariga omad tilab qoldim.

*Gulnoza QUVONDIQOVA,
O'zDJTU 2- kurs talabasi.*



«Kamalakdan»

NAMANGANDAN TAKLIF

Namangan viloyati «Kamalak» bolalar tashkiloti bugungi kunda turli tadbirlar orqali jajji a'zolarini barkamol inson bo'lib yetishishlariga yordam berib kelmoqda. Jumladan, viloyat teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda «Shohsupa» teletanlovi o'tkazildi. Ushbu tanlovni viloyatdagi har bir maktabning quyi sinflaridan boshlab o'tkazish yo'lga qo'yildi. Tanlov yosh avlod zehniini o'stirishda hamda erkin fikrlashda ko'mak bermoqda.

«Kamalak» tashkilotining kelajagi juda porloq. Shunday tadbirlar qilish kerak-ki, yoshlar tashkilotga intilib, iste'dod va iqtidorini to'la namoyon eta olishlari lozim. Mamlakatimiz ko'p millatli davlat. Viloyatdagi mavjud nodavlat tilida o'qitiladigan maktablar o'quvchilari chetda qolib ketmoqda. Shuning uchun tashkilotning Nizomi rus tiliga tarjima qilinib, maktablarga yuborilishi kerak. Tashkilotning mablag'ini ko'paytirish kerak, chunki yoshlarni rag'batlantirish, ularga moddiy ko'mak ko'rsatish salmoqli samara beradi.

N.MUHAMMADIYEVA,

Namangan viloyatining «Kamolot» YOIH rais o'rinbosari.

O'zbekiston Respublikasi «Kamolot»

yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi

«Kamalak» bolalar tashkiloti yosh

avlodni vatanga muhabbat, istiqloq

g'oyalariga sadoqat ruhida yuksak

ma'naviyat, sog'lom, bilimdon qilib

tarbiyalovchi, bolalar tomonidan tuzilgan

tashkilot hisoblanadi.

Tashkilot bugungi kunda o'z a'zolarini

jahon andozalari me'yorida ilm va

ma'rifat sohiblari, barkamol inson bo'lib

yetishishlari uchun ko'pgina ishlarni

amalga oshirmoqda.

Kamolotga»

AXBOROTNOMA
BERING

Sirdaryo viloyatida «Kamalak» bolalar tashkilotini barcha bolalar tan olmoqda. Tashkilot faqatgina umumta'lim maktablari qoshida faoliyat ko'rsatibgina qolmay, yoz mavsumida bolalarni yozgi dam olish oromgohlarida ham mavsumiy ish olib bormoqda.

Sirdaryo tumani hokimligi hamda Mehnatobod tuman hokimliklari hamkorligida tuman dehqon fermerlarining farzandlari uchun «Kamalak» oromgohi barpo etildi. Oromgohda 2 mavsum davomida 200 nafar bolajonlarning ko'ngilli dam olishlari ta'minlandi.

Mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazilgan sportning futbol, shaxmat-shashka, kurash musobaqalari,

«Mustaqillik yillari» mavzusidagi rasmlar ko'rik tanlovi, «Istiqlol mushoirasi» hamda «Yosh kitobxonlar» ko'rik tanlovlari 3 bosqichda tashkil qilindi.

Albatta yutuqlar bor joyda kamchiliklar ham uchrashi tabiiy holdir. Bunga yo'riqnoma va tavsiyalarning yetarli emasligini misol qilishimiz mumkin. Hozirgi kunda ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan «Kamalak» bolalar tashkiloti Axborotnomasi ko'proq nuxxada chop etilsa va barcha umumta'lim maktablariga yetkazilishiga sharoit yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Q.MUQUMOV,

Sirdaryo viloyatining «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi.

BINO MUSTAHKAMMI?

Samarqand viloyatida bugungi kunda 7-14 yoshli bolalarning 60 foizi o'z xohishlari bilan tashkilotga a'zo bo'lishib, o'zlari qiziqqan yo'nalishlari va sohalari bo'yicha turli tadbirlarda ishtirok etib kelishmoqda. «Kichkintoy-2003», «O'zbekiston - aziz Vatanim» ijodiy insholar tanlovi, turli mavzularda asfaltga rasm chizish, sport musobaqalari, qizlar o'rtasida futbol, «O'z huquqingizni bilasizmi?» va boshqa ko'rik-tanlovlar shular jumlasidandir. Hashar yo'li bilan bolajonlarning o'zlari uchun sport maydonchalari yaratish, bog'lar barpo etish, kam ta'minlangan, boquvchisiz oilalarga yordam berish, elga tanilgan insonlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, intellektual o'yinlar ham tashkil qilingan.

Ma'lumki, bino mustahkamligi uning poydevori mustahkamligi bilan chambarchas bog'liq. Xuddi shunday, «Kamalak» bolalar tashkilotining mustahkamligi boshlang'ich tashkilotlarda olib borilayotgan ishlarga qarab baholanadi.

Navro'zjon MAHKAMOV,

Samarqand viloyatining «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi.

JIZZAXDA

«Kamolot» YOIH Jizzax viloyat bo'limi homiyligidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti tomonidan viloyatimiz bolalari o'rtasida sport musobaqalari, intellektual o'yinlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. Ayni kunlarda viloyatimizda yashab turgan 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolajonlar o'rtasida «Kamalak» bolalar tashkiloti, viloyat teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda «Yoshlar markazi» majmuasida «Quvnoq bolalar maydonchasi» telemusobaqasi tashkil etildi. Bolajonlar ushbu telemusobaqada ishtirok etishib, o'z aql-zakovatlarini sinab ko'rmoqdalar.

2002-2003 o'quv yillarida eng yaxshi natijalarga erishgan 45 nafar tashkilot a'zolari ishtirokida «O'lkamiz tarixini o'rganamiz» yo'nalishi bo'yab qadimiy navqiron va ko'hna shaharlardan biri Samarqand shahriga sayohat uyushtirildi. Ayniqsa, bolajonlarda mustaqillik yillarida viloyatda barpo etilgan Imom al-Buxoriy ziyoratgohi katta taassurot qoldirdi.

S.SILLIYEV,

Jizzax viloyatining Bolalar tashkiloti raisi.

«OLTIN KIIYIKCHA»NING KIIYIKCHALARI

Chinoz tumanining Navoiy ko'chasida joylashgan «Oltin kiyikcha» nomli bog'chamizga qatnaydigan 200 nafar kichkintoyni sho'x, o'yinqaroq

kiyikchalarga qiyoslashadi. Chunki ular boshqa bolalar kabi erta tongda, bog'chaga bormayman, deya xarxasha qilib emas, onalarining qo'lidan tutgancha xuddi ohuchalardek sakrab-sakrab kelishadi. Ularni hamshira opalari Hayri opa Eshmatova bilan birgalikda iliq qarshi olamiz, bugun bog'chada bo'ladigan tadbirlarni eslatib, kayfiyatlarini ko'tarishga harakat qilamiz. So'ngra biyron tillari bilan allanimalarni chug'ur-chug'ur qilib, Mavjuda Fozilova, Barno Jo'raxonova, Dilbar Tolixo'jayeva singari mehribon bog'cha opalari yoniga oshiqishadi. Avvallari bolalarni qornini to'qlab, ota-onalari ishdan qaytguncha nazorat qilib turilsa, kifoya edi. Hozir esa ishni yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib boryapmiz. Bunda

Chinoz Xalq Ta'limi bo'limi uslubchisi Dilorom Mahamboyeva ko'rsatmalari juda qo'l kelyapti. Bog'chamiz qoshida

faoliyat ko'rsatayotgan ingliz tili, shashka, rasm, raqs, jismoniy tarbiya to'garaklarda bolajonlar bilim va qobiliyatlarini o'stiradilar, sog'lom, barkamol bo'lib ulg'ayadilar. Ochiq soatlar, bayram ertaliklarini

tomosha qilibgina qolmay, faol ishtirokchisiga aylanadilar. Ayniqsa, ekskursiya va sayohatlar bolajonlarning jonu dili. Jajji sportchilarimiz tuman, viloyat miqyosida o'tkaziladigan «Sog'lomjon-polvonjon» sport musobaqalarida qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelishyapti. Bundan bizning ham boshimiz ko'klarga yetadi. «Kim g'olib chiqibdi», deb so'rashsa, «Oltin kiyikcha»ning kichkintoylari», degan gapni eshitish juda maroqli-da.

Umida EGAMBERDIYEVA,

«Oltin kiyikcha» bolalar bog'chasi mudirasi.

BALIQCHI

Baliqchi anhorda ov qilardi. U to'rni narigi qirg'oqdan berigi qirg'oqqacha tortib, oqimni to'sgach, arqonga kattagina toshni bog'ladi-da, suvni shaloplatib urishga tutindi: baliq shovqindan qochib borib to'rga ilinsin, degan-da. Shu yerda yashovchilardan biri baliqchining bu xil ish bilan mashg'ulligini ko'rib: «Sening dastingdan toza suv icholmay qoldik-ku!», deya uni koyishga tushdi. Baliqchi bunga javoban dedi: «Agar men anhorni loyqalatmaganimda, ochlikdan o'lishimga to'g'ri kelur edi!»



M a s a l
A l q i s s a ,
buzg'unchilar ham
shunga o'xshaydi: ular
o'z yurtlarida
notinchligu g'alayonlar

ODAMLARI SANAMDEK SAHOVATLI QISHLOQ

Turfa gullar chamandek ochilgan maktab hovlisiga kirib borarkanmiz, qo'llarida guldastalar tutgan o'quvchilar, ularning ustozlari bizni iliq qarshi olishdi. O'lis bir qishloq maktabi o'quvchilarining nafis did bilan bir xildagi maktab formasi kiyib olganliklarini ko'rib, g'oyat quvondik. Vaholanki, poytaxtning qoq o'rtasiga joylashgan zamonaviy uslubda qurilgan, hamma shart-sharoitlarga ega bo'lgan ayrim shahar maktablari o'quvchilarining kiyimlariga boqib, ustozlaridan ajratib bo'lmasligini o'ylab, bu maktab o'quvchilariga, ularga ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchilariga yanada hurmatimiz ortdi. Maktab direktori Turdiquil Marg'oziyev bizni bolalar bilan gavjum maktab zaliga boshlab kirdi. 800 dan ziyod o'quvchini, 55 nafar o'qituvchini o'z bag'riga olgan ilm maskani tumanda yetakchi o'rinlardan birini egallar ekan. Bolajonlar navbatma-navbat so'z olib, maktablarida muntazam faoliyat ko'rsatayotgan yosh muxbirlar, kashtachilik, pazandachilik, ekologiya, sport-sog'lomlashtirish to'garaklaridagi ishlari, mashg'ulotlari haqida to'liqlanib gapirishdi. Ustozlari esa 2002-2003 o'quv yilida ilm maskanini tugatgan bitiruvchilarning deyarli 90 foizi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tahsil olishayotgani, o'quvchilari «Umid nihollari» ko'rik-tanlovida qatnashib, tumanda faxrli III- o'rinni egallashgani haqida faxr va iftixor bilan so'zlab berishdi. Dilnoza Mirzayeva, Sevara Mahkamova kabi iqtidorli o'quvchilarning tumanda o'tkazilgan qo'shiqlar tanlovida I- o'ringa loyiq deb topilganini, kashtachi qiz Xulkaroy Hangilova tuman bosqichida I- o'ringa sazovor bo'lganini ham ularning jo'shqin hikoyalaridan bilib oldik. Qiziquvchan o'quvchilar o'z navbatida bizni ham, ayniqsa, bosh muharririmiz Umida opa Abduazimovani savollarga «ko'mib

Ohangaronda «Tong yulduzi» kunlari

Har bir joyning o'z nomi, nomining esa o'z tarixi bo'lganidek, Toshkent viloyatining xushmanzara Ohangaron tumanida joylashgan Sanam qishlog'ining ham o'ziga xos tarixi bor. Bobolaru momolarning aytishlaricha, Buyuk ipak yo'liga tutash bu qishloqda sohibqiron Amir Temur o'z askarlari bilan bir necha kun yashagan ekan. Qishloq ahli sarbozlarni iliq qarshi olishibdi. Ayniqsa, mehmonlar ularni muntazam oziq-ovqat bilan ta'minlab turgan Sanam ismli go'zal va oqila qishloq ayolidan g'oyat minnatdor bo'lishibdi.

Qo'shin olis manzil sari yo'lida davom etarkan, bu ayolning mehr-muruvvatiga tahsinlar aytishibdi. Shundan buyon bu qishloq sahovatli ayol nomi bilan - Sanam qishlog'i, deb atalarkan. Bu so'lim qishloq ahlining mehmondo'stligi, farzandlarining bilimga chanqog'u zukkoligi ta'rifi olis-olislarga ovoza bo'libdi. Ana shu qishloqda joylashgan 33- o'rta maktabda ham iqtidorli, ijodkor o'quvchilar juda ko'pligini eshitib,

ONA

Dunyo qorong'udir sizsiz onajon,
Kunlarim nursizdir sizsiz onajon.
Har on yuzingizda mayin tabassum,
Baxtu iqbolimiz sizsiz onajon.
Dunyo beshigini tebratib asta,
Farzandlar qalbiga qalbi payvasta.
Shoshilib kelaman bag'ringiz tomon,
Onajon, hamisha bo'ling siz omon.

Nasiba BOYIROVA,
38-o'rta maktabning
7- «A» sinf o'quvchisi.

tashlashdi». She'rlaridan yod olishdi, o'z ijodlaridan namunalar o'qib berishdi. Dastxat oluvchilarning esa keti ko'rinmasdi...

Ta'lim maskanida mehnat qilayotgan Gulnora Matkarimova, Mardona To'ychiyeva, Maqsuda Ergasheva, Xonyusuf Masaliyev kabi mehrirdaryo ustozlar bilan qilgan suhbatimiz ham juda maroqli bo'ldi. Ayniqsa, mana 20 yildirki ustozlik kasbini ardoqlab kelayotgan Saltanat opa Mirzavaliyevaning tashabbuskorligi, tinib- tinchimasligi haqida hamkasblari juda ko'p gapirishdi. So'ngra, tuman «Ijod markazi» uyi direktori Xayriniso opa so'z olib, shu maktab o'quvchisi, yosh qalamkash Gavhar Norinboyevaning ijodi haqida gapirdi, kelgusida yetuk shoira bo'lsin, deya niyat bildirdi...

Tadbir so'nggida ishtirokchilarga gazetaning rangli chiqqan sonlaridan



tarqatib chiqdik. Uning sahifalarini zavq bilan tomosha qilayotgan o'quvchilar, «Tong yulduzi» ularning eng sevimli nashri ekanligini, bu yil ham barchalari obuna bo'lish niyatida ekanliklarini aytishdi. -Mana, bolajonlarimizning bilimga chanqoqligi, hozirjavoblighi, odob-ahloqi, yangilikka intiluvchanligiga o'zingiz ham guvoh bo'ldingiz,-dedi biz bilan suhbatda maktab direktori Turdiquil aka.- Ularni rag'batlantirish, dunyoqarashlarini boyitish maqsadida poytaxtimizning tarixiy muzeylariga, qadimiy joylariga, istirohat bog'lariga tez-tez olib boramiz. Mana, maktabimiz uchun qo'shimcha yangi binolar qurayapmiz. Ta'lim sohasida qanday yangilik bo'lsa, albatta maktabimiz hayotiga tadbir etishga harakat qilamiz...

Ustozlarning aytishlaricha, maktab rahbarining ish boshlaganiga hali bir yil ham bo'lmabdi. Lekin shu qisqa fursat ichida amalga oshirgan ishlari boshqa maktablarga ham ibrat qilsa arzigudek ekan. Bu bilim maskanidan mamnuniyat bilan qaytar ekanmiz, sohibqiron Amir Temurning poyqadami tekkan qishloqning yigitlari Temurdek jasoratli, qizlari Sanamdek sahovatli, oqila bo'lib yetishishlariga astoydil tilakdosh bo'ldik. Zero, pok ezgu-niyatlar hamisha ijobat bo'ladi.

Jamila ERDONOVA.


Ziyoda MADALIYEVA, 33 - maktabning 7-sinf o'quvchisi:

-Bizning tuman eng go'zal tumanlardan bo'lsa kerak. Maktabimiz ham tumandagi eng ko'rkam joyda joylashgan. Mana, o'lkamizda «oltin kuz» hukmron. Shu sababli biz o'quvchilar tabiat qo'yniga saylga chiqdik. Bu meni juda ruhlantirdi. Chunki tabiat go'zalligiga, bog'u rog'lar yaratishga dehqonlarimiz o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Men bu bilan faxrlanaman. Tog'u toshlardan suvlarning oqib tushishi go'yo insonga ajib tuyg'ular ulashayotgandek tuyuladi. Biz ushbu tabiat manzaralarini ko'rib, shu tabiat qo'ynida ulg'ayamiz. Kelajakda albatta o'z tug'ilgan yurtimizga kerakli inson bo'lishga va'da beramiz.

Mazmuna QARSHIBOYEVA, 33 - maktabning 7-sinf o'quvchisi:

-Yozgi ta'til tugab, qadrdon maktabimizga qaytdik. Maktabni shunday sog'ingan edimki, buni tasavvur ham qila olmaysiz. Maktabimizda juda ko'p tadbirlar o'tkazib turamiz. Bu tadbirlarga maktab «ma'rifiy-ma'naviy» ishlari bo'yicha direktor Saltanat opa Mirzavaliyeva bosh-qosh bo'ladi. Masalan, har dushanba kuni yig'ilish o'tkazamiz. Yig'ilishda mahallalar toza-ozodaligi, sportga e'tibor, o'quvchilarning bilimi, odobi haqida ko'p gapiriladi va ushbu mavzular

yuzasidan tadbirlar uyushtiriladi. Maktabimiz eski bo'lgani bilan yaqinda sinf xonalar yangi jihozlar bilan ta'minlandi. Ustozlarimiz bizga sidqidildan saboq beradilar.



«TELOV»LIKLAR

HAM «TONG YULDUZI» MUXLISLARI

- «Sanam»dagi 33 - maktabga «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari kelisharmish, degan xushxabarni eshitib, biz

ham kelavardik, deya davramizga qo'shilishdi. Shahriniso Hasanova boshchiligidagi bir guruh o'quvchilar. Bizning Bahodir Sodiqov nomli 38 - maktabimiz ham shu yaqin atrofda, Telov qishlog'ida joylashgan.

Maktabimizda tahsil oladigan 700 nafar o'quvchilarning deyarli aksariyati gazetangizning ashaddiy muxlislaridir. O'tgan yili «Sinfidosh»ga obuna bo'lgan ko'plab o'quvchilarimiz jurnalni o'z vaqtida ololmay, xunob bo'lishgandi. Shuning uchun ham bu yil 6-sinfidan 11-sinfacha bo'lgan o'quvchilarimizning deyarli hammasi, nari borsa ikki o'quvchi bir bo'lib «Tong yulduzi»ga

UMR
Kunlar o'tar kunlar sari,
Fasllar ham ketar nari.
Yillar shitob aylashadi,
Bunchalar tez o'tar umr.
Qushlar uchib ketishadi,
Qorli kunlar yetishadi.
Yoshimga-yosh qo'shiladi,
Bunchalar tez o'tar umr.
Shohista ALMATOVA.

o'qib, ma'naviy o'z uq a olishyapti, bilmaganlarini o'qib o'rganishyapti. Ertasi kuni esa o'qiganlari xususida qizg'in munozara uyushtiradilar. Iqtidorli tengdoshlari haqidagi maqolalarni, boshqa maktablar hayotiga oid xabar va lavhalarni o'qib, havas qilishadi. O'zlarining o'qishda va sportda qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqidagi maqolalarni gazeta sahifalarida o'qishni orzulashadi. Chunki bizning maktabda ham ibratli ishlar talaygina. A'lochi, iqtidorli o'quvchilarimiz,

USTOZ
Bizga odob o'rgatgan,
To'g'ri yo'lni ko'rsatgan.
Ilmli bo'linglar deb,
Aziz ustoz o'rgatgan.
Yozolmasdik yozdirib,
Harflarni ham tanitib.
Bilmaganni bildirib,
Aziz ustoz o'rgatgan.
Kattalarga hurmatni,
Kichiklarga izzatni.
Dunyo ilmin bilmoqni,
Aziz ustoz o'rgatgan.
Mushtariy G'AYNAZAROVA.

umidli sportchilarimiz bilan maqtansak arziydi. Ayniqsa, futbol jamoamiz a'zolarining yutuqlari faxrlansak arzigudek. Yaqinda ko'plab musobaqalarda g'olib chiqqan mohir to'psurarlarimizga «O'zbekiston» shirkat xo'jaligi tomonidan mukofot tariqasida kattakon qo'chqor sovg'a qilinganini aytmaysizmi?!

O'quvchilarimiz orasida adabiyotga, she'riyatga mehr qo'yganlari ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Yosh qalamkashlarimiz tuman bolalar va o'smirlar «Ijod uyi»ga qatnab, ijodkor ustozlaridan saboq oladilar.

Rasulxon Olimov, Sevara Mo'minova, Feruza Abdurahmonova, Tursunali Qosimov, Xurshid Mo'minov va Ozod Mo'minov singari bilimdon va zukko

GULLAR
Bog'larni bezatib turuvchi gullar,
Saharda xayollar suruvchi gullar,
Olamda yagona bunday go'zallik,
Bahorni boshlab barq uruvchi gullar.
Anora MIRZAYEVA.

o'quvchilarimiz turli fan olimpiadalarining viloyat bosqichlarida ishtirok etib, maktabimiz sharafiga himoya qilib qaytishdi.

TULKIJON
O'zi juda ayyor tulki,
O'ljasiga tayyor tulki.
Tovuq unga zo'r taom,
Xabar yo'q undan hamon.
O'rmondagi hayvonlar,
Tulkivoydek ayyormas.
Shaytonga dars beradi,
Tekin poylab yuradi.
Sabohat YUNUSALIYEVA.

yaqindan yordam berishadi. Maktabimiz uchun ajratilgan

Sahifadagi she'rlar mualliflari
38- maktabning
7- «A» sinf o'quvchilari.

ikki gektarlik tomorqamizda mehnat qilishadi. Shuningdek, maroqli hordiq chiqarishni ham unutishmaydi. Tez

OBOD MAHALLAM
Obod mening mahallam,
Bundan ko'nglim juda shod.
Keksalaru yoshlari,
Omon bo'lsin boshlari.
Orasta ko'chalari,
Charog'on kechalari.
Birga mehnat qiladi,
Inoqlikni biladi.
Ishlarida bor unum,
Ibrat olsang arziydi.
Kelajakka boqadi,
Ahilligi yoqadi.
Bahodir SODIQOV.

tez Toshkentga sayohatga olib chiqamiz. Poytaxtimizning diqqatga sazovor joylarni tomosha qilib, bir olam taassurotlar bilan qaytishadi. Bu ibratli ishlarning bariga maktabimiz rahbari Yo'ldosh aka Tillaboyev qoshlar.

Maktabimizda o'quvchilarimizning puxta bilim olishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Zamonaviy kompyuterlar ular ixtiyorida. Lekin ularning sog'lom va baquvvat o'sib-ulg'ayishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratilgan, deya olmaymiz. Bolajonlar barcha qulayliklarga ega bo'lgan sport zallarida sport bilan muntazam shug'ullanib borsalargina, barkamol bo'lib ulg'ayadilar.

BOG'DA
Shoxda qizil olmalar,
Sahar chog'i pishibdi.
Tizilishib tovlanar,
Yerga tap-tap tushibdi.
Mehnat bor bog'bonni,
Daraxtlar ham biladi.
Olmalari shoxin egib,
Unga ta'zim qiladi.
Madina NURIDDINOVA.

Bizning sport zalimiz qurilishi esa chala yotibdi. «Qolgan ishga qor yog'ar», deganlari rost ekan. Qurilishi ancha yillar avval boshlangan ikki qavatli maktabimiz binosining teng yarmi hamon qurib bitkazilmagan. Bu xususda juda ko'p, hatto televideniya va radio orqali ham gapirilgan. Lekin hech bir ijobiy natija bo'lmayapti. Shoyad, mutasaddilarimiz bu haqida «Tong yulduzi» sahifalarida o'qib, harakatga tushib qolishsa...

Shahriniso HASANOVA,
matematika va informatika fani o'qituvchisi.



«SAN'AT HAMROHIM BO'LADI»

Setora Avezova Sobir Rahimov tumanidagi 326-xalq amaliy san'ati maktab-majmuasining 6- «A» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. San'at jonu dila. Raqsga tu shadi. Dutor chertganida ohangrabosi zavqingizni oshiradi. Shuningdek, adabiyotga ham mehri bo'lakcha. Ko'p o'qiydi, she'rlar mashq qiladi. Vatanga muhabbat, onalar madhi, tinchlik tarannumi - she'rlarining bosh mavzusi sanaladi. Besh yoshligidanoq onasi Dilorom opadan kashta tikishni o'rganib olgan Setora o'zi tahsil olayotgan maktabda bilganlarini mustahkamlab, bilmaganlarini o'rganib boryapti.

Setora shuncha yumushlaridan vaqt ajratib, «Bulbulcha» raqs va xor ansambliga ham muntazam qatnaydi. Endilikda u

xorazmcha, samarqandcha, tojikcha, andijoncha raqslarni maromiga yetkazib o'ynay oladi.

Bu yil uning uchun omadli bo'ldi. «Yosh yulduzlar» ko'rsatuvida u haqida film-konsert yaratildi. Ulg'aygach, shifokor bo'lishni orzulaydigan Setora san'at uning doimiy hamrohi bo'lib qolishiga ishonadi.

Biz ham unga orzulari ijobatini tilab qolamiz.

Nargiza AKBAR qizi.



Maktabim, seni maqtagum!

Angren shahridagi 7 - o'rta maktab shaharning eng so'lim go'shalaridan biriga joylashgan. Maktabda tahsil olayotgan 1230 nafar o'quvchiga ko'pchilikning havasi keladi. Chunki ularga 52 nafar o'z kasbining ustasi bo'lmish malakali o'qituvchilar, shuningdek, Xalq maorifi a'lochilari Jahonbu Usmonova, Abduhofiz Bahorovlar saboq berishadi-da.

fanlari bo'yicha o'tkazilgan viloyat olimpiadalarida qatnashgan Sardor Usmonov hamda Burxon Salimovlar g'oliblikni qo'lga kiritib, ustozlari ishonchini, maktablari sharafiga oqlab qaytishdi. San'at ixlosmandlari bo'lmish Davron Hasanov, Davron Firdavsov, Sarvinov Komilovalar esa «O'zbekiston qo'shiq bayrami»

Gulnora Remziyevadek o'qituvchi bo'lib olardim.

Ilvina ILYASOVA:

-Maktabdagi hamma dangasa, ikkichi bolalar qalbida bilimga, kitob o'qishga ishtiyoq uyg'otgan bo'lardim.

ANGRENDA SHUNDAY MASKAN BOR

O'quvchilarning o'zlari ham shunday ajoyib ustozlar qo'lida tahsil olishayotganidan faxrlanib yurishadi. Maktabni bitirib ketgan shogirdlarining xalqimiz, Vatanimiz xizmatida kamarbasta bo'layotganliklaridan ustozlari qalbi ham iftixorga limmo-lim to'lmoqda. Sobiq o'quvchilari Bobur Qo'chqorov Amerikadagi yuridik oliygohni a'loga tamomlab, endilikda Angren shahrida prokuror lavozimida ishlab kelayotgan bo'lsa, uning maktabdoshi Ulug'bek Latipov ham shu sohadan borib, Samarqand shahrida prokuror yordamchisi bo'lib xizmat qilyapti. Odiljon Suyarov esa Toshkentdagi Oliy milliy maktab tinglovchisidir.

Ayni paytda maktabda tahsil olayotgan o'quvchilar ham bo'sh kelishmayapti. Lutfullaxon Mallaxo'jayev viloyat Xalq Ta'limi bo'limi tomonidan tashkil qilingan «Eng yaxshi kitobxon» ko'rigining g'olibi bo'ldi. Dildora G'oziyeva, Burxon Salimov, Nargiza Boymatova, Fotima va Zuhra Sodiqovalar mana to'rt yildirki, «Siz qonunni bilasizmi?» tanlovida 2-, 3-o'rnlarni egallab kelishyapti. Matematika, biologiya

tanlovida bor mahoratu iqtidorlarini ishga solishdi.

O'quvchilarning puxta bilim olishlari uchun shart-sharoitlarning yaratilishi, maktabning gullab-yashnashi yanada ko'rkamlashib borishida homiylarning ham hissasi katta. Tashkiliy ishlarda ota-onalar qo'mitasi vakillari Ahmadsulton Saidov, Dilorom Malikova, Nazokat Parpiyevlar ustozlar bilan yelkama-yelka turishsa, «Ko'kterak» mahallasi oqsoqoli Ergash aka G'opirov tadbiri tantanalarning doimiy ishtirokchisi, bolajonlarning eng yaqin maslahatgo'yi bo'lib kelyaptilar. Shuningdek, «Tog' transporti uskunalarini sozlash aksionerlik jamiyati» raisi Marajab Tursunov maktab uchun quduq qazib berish ishlariga ko'maklashishyapti. Bayram va tantanalarda munosabati bilan o'quvchilarni taniq taomlar bilan mehmon qilishadi. Navro'z, yangi yil bayramlarida sovg'a-salomlar ulashishadi. Kam ta'minlangan oilalarning farzandlari ularning mehr-muruvvatlaridan bahramand bo'lishadi. Maktabni ta'mirlash ishlariga ham imkon qadar yordam berishadi.

Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan turli to'garaklar o'quvchilar bilan doimo gavjum bo'ladi. Ayniqsa, «Yosh qalamkashlar» to'garigiga a'zo bo'lishni xohlovchi ijodkor o'quvchilar talaygina. Biz ulardan ayrimlarini suhbatga tortib, «Agar sehrigar bo'lib qolsangiz, nima qilardingiz?», degan savol bilan murojaat qildik:

Vaselina BULGAKOVA:

-Tezda ulg'ayib qolib, ustozim

VATANIM
O'zbekiston hur Vatan,
Hamma joyi nur Vatan.
Tog'lari-yu bog'lari,
Bamisoli dur Vatan.
Odamlari bag'ri keng,
Misoli samoga teng.
Birdam bo'lib ishlashar,
Toliqmay, shimarib yeng.
Shaharlari zo'r, obod,
Xalqidir erkin, ozod.
Yurtimga ko'z tegmasin,
Deydi momolar bot-bot.
Bobur TURDALIYEV,
Angren shahridagi
7 - o'rta umumta'lim
maktabining 5 - sinf
o'quvchisi.

Bu savolimizga ko'plab o'yinqaroq bolalar, bir dumalab, a'lochi bo'lib olardim, deya javob berishdi. O'qib, guvohi bo'lganingizdek, maktab o'quvchilari bilimga chanqoq, kitobxon, yana atrof - muhitning ozodaligiga ham befarq bo'lmaydigan o'g'il-qizlardir. Shunday o'quvchilari ko'p bo'lgan maktabga hamma havas qiladi-da, albatta.

Muhayyo TO'LAGANOVA,
Toshkent viloyati,
Yangiyo'l tumanidagi
«Tinchlik» jamoa
xo'jaligi.

BILAG'ON BOLALAR
DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushurib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi...
Maqsadimiz, bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

NYUTONNING OLMASI

(Isaak Nyuton 25.01.1642 - 31.03.1727)

Bu odam mexanikaning asosiy qonunlarini ishlab chiqdi. Butun olam tortishish qonunini kashf etdi. Oq rang boshqa ranglardan ajralishi qonunlarini ochdi, yorug'likning korpuskulyar-to'lqinsimon nazariyasi (yorug'lik alohida zarralar oqimi deb bilishga asoslangan yorug'lik hodisalari nazariyasi)ni oldinga surdi, differentsiya va integral hisobni ishlab chiqdi, qizdirilgan jismning sovushi qonunini kashf etdi. Qayishqoq suyuqlikda harakatlanishiga qarshilik qonunini ochdi. Dastlabki termometrlardan birini ishlab chiqdi. Birinchi bo'lib yorug'likni aks ettiruvchi teleskopni yaratdi. Lagranj keyinchalik Nyuton haqida shunday deydi: «U eng baxtli olim, chunki olam tuzilishini faqat bir marta kashf etish mumkin».

Isaak 1642 yilning qishida, Rojdestvo bayramidan keyin, Vulstorn shahridagi baland uylarning tosh mo'rilarida bo'ron uvillayotgan bir kuni dunyoga

keldi. U chala tug'ilgan, shu qadar zaif va nimjon ediki, ruhoni Varnava Siit bu go'dak omon qolmaydi, deb hisoblagan. Keyinchalik Nyutonning o'zi bu haqda shunday deydi: «Onamning aytishlaricha, shunday mitti bo'lib tug'ilganmanki, hatto kattaroq pivo krujkasida cho'miltirish ham mumkin ekan». Biroq, ana shu zaif go'dak barchani hayratga solib, omon qoldi va uzoq umri mobaynida kasallik nimalagini bilmadi ham. Xoh ishonang, xoh ishonmang, 84 yoshga borganida atigi bitta tishidan ayrilgan, xolos.

Bola u tug'ilishidan avval vafot etib ketgan otasini bilmasdi. O'gay otasining aytishicha, otasi g'aroyib fe'l-atvorli, ojiz bir kimsa bo'lgan ekan. Go'dak uch yoshligida o'gay otasi bilan onasi ko'chib ketishadi va u buvisi bilan qoladi. Shu tariqa buvi bilan nevara bo'z tusli toshlardan qurilgan mo'jazgina qishloq uyida ikkovlari yashayverishadi. Isaak qishloq maktabini bitiradi va qo'shni bolalar otasi singari fermerlarning o'g'illari qatorida shu bilan kifoyalanib qolishi mumkin edi. Biroq, hayriyatki, qarindoshlari uni qishloqda o'n

Abadiyat ardoqlagan allomalar
Ushbu ruknni Rustam OBID
olib boradi

chaqirimcha masofada joylashgan Grengem nomli mo'jazgina shaharchadagi qirolik maktabiga o'qishga yuborishadi. Bu uning oz sonli sayohatlaridan birinchisi edi. Umuman, Nyuton bag'oyat xonanishon bo'lib, butun umri mobaynida qadrdon uyidan 180 chaqirimdan olib ketmagan. U hech qachon La-Mansh bo'g'ozidan o'tib, yuvropaga qadam qo'ymagan, Angliyani bir kun ham tark etmagan. Nyuton haqida yozish qiyin, chunki hayotida birona sarguzasht, aql bovar qilmas voqea yoki noyob hodisa ro'y bermagan. Chamasi u davrlarda yo ko'chada unga hech kim e'tibor bermagan, negaki, o'rta bo'ydan ham pastroq, ko'rimsiz, ichimdagini top, deyidigan bu kamgap, nutqi yo'q odam kimni ham qiziqtiradi, deysiz.

(Davomi bor.)

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Ortiq:

- Men Svetoniy ismli, eramizning ikkinchi asrida yashab, ijod etgan qadimgi bir tarixchining kitobini o'qigandim.

O'tkir:

- Nima kitob? Gapingni dalillab gapir!

Ortiq:

- «O'n ikki Sezarning hayoti» degan kitob. Ruschada 1933 yilda bosilgan, Moskvada ... Hoji amakim: «Albatta o'qib chiq!» deb menga sovg'a qilgandilar.

O'tkir:

- Unda nima deyilgan ekan?

Ortiq:

- Unda Rimda hukmdorlik qilgan o'n ikki podshohning hayoti har taraflama yoritilgan. O'sha kitobni o'qib chiqqanimdan keyin, men: «Rimliklarning axloqi buzilib ketgani ham imperiyaning yemirilishiga olib kelgan ekan», deb o'ylagandim.

Qodir:

- Men qadimgi shoirlarning hayotidan bir voqeani o'qigandim.

Oqbola:

- Qayerda o'qigansan?

Qodir:

- Men Ortiqqa o'xshab fikrlarimni dalillab aytolmayman. Qayerda, qachon o'qiganim yodimda yo'q. O'sha shoir mansabga qattiq intiluvchi odamlar toifasidan bo'lib, bu yo'lda har qanday qabihlikdan qaytmaydi. Faqat o'ssa, yuksalsa bo'ldi.

Oqbola:

- Gapni menga tekkizyapsanmi?

Qodir:

- Nega senga tekkizaman? Sen unaqa yigitlardan bo'lmasang kerak, axir! Xullas, o'sha davlat ham keyinchalik boshqa millat iskanjasiga tushgan...

Oqbola:

- Yo'q. Senlar bilan do'stlik menga yoqmayapti.

Senlar xayolparast odamsanlar... Kelajakda hammang menga yalinib kelasanlar! O'shanda gaplashamiz senlar bilan! Axloqli bolalar... Omon bo'linglar. Men ketdim (Keta boshlaydi).

O'tkir:

- Yo'l bo'lsin! Yo'l bo'lsin! Bosgan izlari gul bo'lsin!

Muzaffar Burro:

- Qo'ysang-chi, O'zi ketar, yor-yor, O'zi kelar, yor-yor: Kelaveradi, ketaveradi, Va'dasi boshqa.

Qodir:

- Xohlaganing. To'rt tomoning ochiq.

(Pauza)

Ortiq:

- Men uni xafa qiladigan gap aytmadim shekilli?

Muzaffar Burro:

- O'zidan o'zi achiydi...

O'tkir:

- Men bir narsaga hayronman! Hammanglar uning laqabini aytdinglar, nega kech kelganini so'radinglar. Ammo men aytganda chidamadi. Nega unday bo'ldi?..

Qodir:

- Ey, sizlar bilmaysizlar. Men uning ichini besh qo'ldak bilaman. Mahalladosh qo'shnimiz. Oilada, ko'chada qandoq, nimani o'ylaydi- hammasi menga ma'lum. U o'zining ikki laqabini yoqtiradi. Yuvinib, taranib yuradi. Shampun bilan yuvingandan keyin sochlariga sochmoy suradi, «Repeynoye maslo» degan... Sochidan tirnog'igacha eng qimmatbaho

noma'qul.


Qodir:

- Oltinchi sinfda zoologiya o'qituvchimiz «Silovsin» degan hayvonni o'tayotgan edi. «Silovsin mushuklarning kattasi desa bo'ladi. U daraxtlarga osonlik bilan chiqadi. Butoqlarda mazza qilib yotadi. Ovi o'tib qolsa, shartta daraxtdan o'zini pastga otadi. Ammo, jur'atli, ovini qo'ldan chiqarmaydi», dedi. Shunda men: «Zabihullaga o'xshar ekan-da!» deb yubordim. Chunki u bolaligidan beri daraxtga chiqib, ayrlarda, butoqlarda yotishni yaxshi ko'rardi. Buni hech kim bilmasdi, faqat men bilardim. O'qituvchimiz sal hayron bo'ldi-yu, ammo darsini to'xtatmadi. O'sha-o'sha bunga «Silovsin» laqabi yopishdi- qoldi. Oqbola kabi, bu laqab ham o'ziga yoqadi. Shuning uchun kim uni «Silovsin» desa, jilmayib qo'yadi. Silovsinman, degandek o'zicha gerdayib yuradi. Ammo uchinchi laqabi o'ziga yoqmaydi. «O'sadigan

Masal

QACHON YOLG'ONLAYDILAR?

Tulki bilan maymun hamroh bo'lib ketishayotgan edi, oralarida kimning zoti ulug'roq, degan bahs qo'zg'alib qoldi. Ikkalasi ham o'z nasl-nasabi haqida qo'-o'p gapni aytib ulgurgandi, ittifoqo yo'l bo'yidagi qabrlarni ko'rib qolishdi. Maymun chuqur-chuqur xo'rsinib yig'lashga tushgandi, tulki



so'rab qoldi: «Nima gap, tinchlikmi?» Maymun qabrtoshlarga ishora qilib, xitob qildi: «E-e, men yig'lamay kim yig'lasin: axir, bu yodgorliklar ajdodlarimning qullari-yu xizmatkorlari xotirlariga qo'yilgan-ku?!» Tulki esa bunga javoban kulib dedi: «Birodar, hech cho'chimay istaganingcha olib qochaver, axir, ulardan birontasi ham sening yolg'oningni fosh qilish uchun tirilib kelolmaydi!»

Alqissa, yolg'onchi kishilar ularni fosh etguvchi kimsa bo'lmagan joydagina xumordan chiqib yolg'onlaydilar.



atir sovunlar bilan yuvadi.

Ortiq:

- Yaxshi-ku!

Muzaffar Burro:

- Ammo bunga pulni qayerdan topadi?

Qodir:

- Otasi saidlardan. Katta eshon bo'lgan. Endi Xasta Imom maqbarasi yonida tilanchilik qilib o'tiradi. Bironota odam sadaqa bermay o'tmaydi. Hurmati baland bo'lgan, deyishadi. O'sha pullardan oladi... Onasi uni «Oqbolam», «Oppoq bolam» deb erkalatadi. O'zi ham o'zining pokdomonligi bilan faxrlanib yuradi.

Ortiq:

- Bunisi yaxshi... pokdomonligini aytaman... Ammo otasini shilib olishi

bola» desang, jini qo'ziydi.

O'tkir:

- Nega? «O'sadigan bola» yomon emas, shekilli...

Qodir:

- Yo'q, bu so'zning kinoyali tomoni ham bor: «Laganbardorlik bilan yuqoriga ko'tariluvchi» degan ma'noni bildiradi. Bu Oqbola yuqori mansabli odamlarga laganbardorlik qilib, obro' orttirish yaxshi emasligini tushunadi. Ammo shu yo'ldan o'zini tiyolmadi. Sizlar bilmaysizlar. U maktabimiz direktoriga sigaret, aroq obkep beradi. Birda pulini olsa, birda olmaydi. Direktor ham Zabihulla maktab bo'yicha eng a'lochi, eng o'tkir o'quvchi bo'lmasa-da, majlisda maqtab, ko'tarib

Maktab sahnasi uchun Miraziz A'ZAM

qo'yadi. Maktabimiz bo'yicha eng a'lochi kim? Jamol Hasanov! Buni maktab o'qituvchilaridan tortib o'quvchilari xizmatchilargacha hamma yaxshi biladi. Shunga qaramay direktorimiz hech qachon uni maqtamaydi. Jamolning o'ziga maqto'v hech qanday ahamiyatsiz narsa. Agar direktor: «Jamol! Menga magazindan sigaret keltirib ber!» desa, u direktorning yuziga tik qarab qo'yishi mumkin, sigaret obkep bermaydi, u bunday ish qilishga uyaladi. Zabihulla uyalmaydi, bunday ishni jon-jon deb qiladi. Bu aybini men unga necha bor aytganman. U parvo ham qilmaydi. Ortiqning axloq haqidagi gaplari va men uni tasdiqlaganim unga alam qildi. O'zini o'zi biladi-da!

O'tkir:

- Eh-h! Odamning ko'ngli aynab ketdi, kirlanib ketganga o'xshayman. Umrida hammom ko'rmagan odamday... «Kirlanib bitdim o'zim, dunyoni poklay olmadim», degan ekan tatarning ulug' shoiri Abdulla To'qay. Endi... men sizga aytsam... Qo'yaylik shu darsni... Bir miriqib cho'milaylik.

Bolalar:

- (Baravariga) «Bo'pti!», «Cho'milamiz!», «Yechindik!», «Kitobni yig'!»

Hammalari turli daraxtlar tagida yechinib, faqat trusikda qola boshlaydilar. O'rtada hazil- huzul boshlanadi.

Muzaffar Burro:

(Qodirning oldiga borib, trusigidan tortadi) O'h-ho'! Mana buni trusik desa bo'ladi. O'ziyam ikki metr satin ketgandir...

Qodir:

- Ha, bozor bo'yicha eng katta trusik - shu edi!

Muzaffar Burro:

- Otangni bahosidir o'ziyam!

Qodir:

- Ha, ikki yarim so'm!

Muzaffar Burro:

- Bu pul bilan, masalan, menga ikkita trusik olsa bo'ladi...

Qodir:

- Seniki necha pullik?

Muzaffar Burro:

- Aytyapman-ku, mening trusigim bir so'm yigirma besh tiyinlik. O'tkir! Hoy, O'tkir! Qodirning trusigini qara...kattaligini... O'ziyam ikki yarim so'mlik ekan...

(Davomi bor.)

DO'ST NASIHATI

Mudom esnab, der Vali:
-Dars qilmaganman hali.
O'qisam, boshim og'rir,
Dars qilish qanday og'ir?!
Qayga borsam bir yumush,
Hammasi boshga tashvish.
O'ynab-kulsaydim koshki,
Zavqqa to'lsaydim koshki...
O'qish nima bilmasam,
Hisob-kitob qilmasam.
Faqat o'ynasam futbol,
Eh, bo'lardi juda zo'r!
Ma'qulmi fikrlarim,
Sen nima deysan, Salim?
Nimayam derdim, o'rtoq,
O'qimasang ish chatoq.
O'qish-yozish bilmasang,
Hisob-kitob qilmasang,
Hayotda kim bo'laman?
Qoqilib, yiqilasan.
Senga rostin aytayin,
Kulgu bo'lishing tayin.
Ilming bo'lmasa agar,
Kim seni inson sanar?
Hatto to'p ham tepmaysan,
Orzuingga yetmaysan.
O'zingga bo'lma zolim,
Bo'lg'in bilimdon olim.
Ilm qo'ldan tutgin,
Yalqovlikni unutgin.
Shunda sen-la muqarrar,
Ota-onang faxr etar.
Men ham do'stim degayman,
Sira yalqov demasman...

*Muqaddas HUSANOVA,
Toshkent shahridagi
Ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar
kolleji talabasi.*

KIM ALVASTI?

Bolaligimdagi bir voqea hecham yodimdan chiqmaydi. Akam menga buyurgan yumushlarini bajarmaganim uchun ular bilan xafalashib qolgandik. Mahallamiz bolalari bilan kech tushganda bekinmachoq o'ynardik. Uyimizning orqasiga o'tib yashiringanimni ko'rgan akam, kunduzgi alamini olish niyatida meni qo'rqitish uchun yo'limni poylab turibdi. Hech gapdan xabarim yo'q, yugurib ketayotganimda akam yoqamdan ushlab «vov» deb siltaladilar. Qo'rqib ketganimdan chinqirib yubordim. Meni nari itarib yuborgan akam ham «dod» solib qocha boshladi. Keyin bilsam, yelkam bilan bitta bo'lib yoyilib turgan tim qora, qalin sochlari, qo'rquvdan yonib turgan ko'zlarim akamga alvastini eslatib yuboribdi. Meni qo'rqitmoqchi bo'lgan akam bir necha kun tilsiz qolib, hammamizni juda qo'rqitib yubordi. Shuni aytisalar kerakda, birovga choq qazisang, o'zing yiqilasan, deb. Bu voqeani hali-hanuz eslab, kulishib yuramiz.

*Dilfuza TOJIBOYEVA,
Farg'ona viloyati,
Buvayda tumani.*

IMKONIYAT YOSH
TANLAMAYDI

Siz hech bo'lmaganda bir marta odamning imkoniyatlari haqida o'ylab ko'rganmisiz? Bir o'ylab ko'ring-a. Chunki inson hamma narsaga qodir, insonning miyasi 20000 kitobdagi axborotni o'ziga sig'dira oladi. Eng muhimi shuki, bu imkoniyat yoshga bog'liq emas. Masalan: Buyuk mutafakkir Ibn-Sino to'rt yoshida Qur'onni to'la yod olgan. Aleksandr Tolstoy olti yoshida fransuz, nemis, ingliz tillarini bilgan. Griboyedov o'n bir yoshida Universitetga o'qishga kirib, olti yilda uchta fakultetni bitirgan. Chingiz Aytmatovga besh yoshida tarjimonligi uchun haq to'langan. Bobur o'n ikki yoshida davlatni idora qilgan. Gyote to'qqiz yoshida nemis, lotin va grek tillarida she'r yozgan. Paskal o'n besh yoshida birinchi ilmiy ishini himoya qilgan.

AQShning Ganadagi elchisi bo'lgan Shirli Teshl to'rt yoshida filmda suratga tushgan, olti yoshida «Oskar» mukofotini olgan.

Shunday javohir egasi ekanmiz, keling, uni tinch va ezgu maqsadlarda ishlataylik.

Gulshan SHOQOSIMOVA

TDU qoshidagi akademik litsey talabasi.

MAQSAD

Ilm dargohidan qaytganim hamon,
Biroz muddat yolg'iz o'yga tolaman.
Kun bo'yi qilgan barcha ishlarim,
Eslayman, mushohada qilib olaman.

Yaxshisidan quvonib, yomondan aksi,
Ma'yus bo'lib o'zimdan xafa bo'laman.
Ustozdan o'rgangan bilimim o'ylab,
Yengil nafas olib, kuchga to'laman.

Yosh qalbim izlanar, umid hukmron,
Intilmaslik yomon, «noumid shayton».
Maqsadim yo'lida hech chekinmayman,
Kelajagim porloq bo'lar begumon.

Manzura OLIMOVA,

*Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidagi «Bo'ston»
iqtidorli bolalar litsey-internatining 10 - sinf
o'quvchisi.*

MINNATDOR QO'Y

Bahorning salqinroq kunlaridan biri edi. Qo'ylarimiz qo'zilagan, biz akam ikkimiz ularni o'tloqda boqib yurardik. Qo'zichoqlarimizdan biri sharqirab, to'lib-toshib oqayotgan ariqqa tushib ketsa bo'ladimi. Suv shiddat bilan uni oqizib borar, ona qo'yimiz esa ariqning u qirg'og'idan bunisiga sakrab, ma'rab, qo'zichog'ining ortidan yugurib borardi. Najot izlagandek biz tomonga qarab ma'rab ham qo'yardi. Akam ikkimiz qo'rquvdan o'zimizni yo'qotib qo'ydik. Shox tashlab ko'rdik, ko'prikdan ushlamoqchi bo'ldik, bo'lmadi. Oxiri akam o'zini suvga otib, qo'zichoqni olib chiqdi. Erta bahor emasmi, suv ancha sovuq edi. Akamning labi-labiga tegmay takillardi. Lekin qilgan ishidan mamnunligi yuz-ko'zlaridan sezilib turardi. Ona qo'y qo'zisini yalab qurita boshladi. U bolasining yunglari qurib, sakrab-sakrab yurib ketmaguncha yonidan jilmadi. Qo'ylarda ham onalik mehri shunchalik kuchli bo'lishini ko'rib, hayron qoldim.

Yorqinoy QODIROVA,

Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi

21 - maktabning 7 - «V» sinf

o'quvchisi.

M e h r

SOG'INCH

Dugonam Saidaning dadasi

safarlardan birida qiziga kuchukcha olib keldi. U oppoq, juda kichkina va yoqimtoygina edi. Saida ikkimiz uni mehr bilan parvarishlay boshladik. Kuchukcha tezda ulg'ayib, biz buyurgan topshiriqlarni bajara oladigan bo'lib qoldi. Qisqasi, u ikkimizning ovunchog'imizga aylanib qolgandi.

Bir kuni Saidalarnikiga kirsam, u yig'lab o'tiribdi. Sababini so'rasam, dadasining do'sti Samad aka kuchukchani olib ketibdi. Samad aka, agar ona it o'lib qolsa, bolasini qaytarib olaman, degan shart bilan bergan ekanlar. Baxtga qarshi ona it o'lib qolibdi...

Shu voqea sabab bo'ldi-yu Saida butunlay o'zgarib qoldi. Tuz totmay qo'ydi. Tez kunda ozib-to'zib, rangpar bo'lib qoldi. Dadasi unga boshqa kuchukcha olib keldi. Lekin Saida unga qayrilib ham qaramadi.

Oradan bir necha kun o'tgach, dadasining do'sti kuchukchani qaytarib olib keldi. Uning aytishicha, kuchukcha hech narsa yemay, xomush bo'lib yotaveribdi. Ko'nikib ketar, degan ilinjda bir necha kun kutishibdi. O'zgarish bo'lmabdi. Shundan so'ng yana o'lib-netib qolmasin, degan xavotirda qaytarib olib kelishibdi.

Saida kuchukchani ko'rdi-yu o'rnidan turib ketdi. Kuchukcha ham unga otili. Xoh ishonang, xoh ishonmang, ikkisining ko'zidan ham yosh oqardi. Bu sevinch, sog'inch yoshlari edi.

Navbahor HAYDAROVA,

Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi

21 - o'rta umumta'lim maktabining

7 - «V» sinf o'quvchisi.



O'z yuring - oltin hushing
TONG
yulduzi

*O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi*

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOII
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

Bosh muharrir
Umida
ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«O'zbekiston»
nashriyoti matbaa
bazasida chop etildi.
Adadi - 10926
Korxona manzili:
700129,
Toshkent,
Navoiy
ko'chasi, 30.
Buyurtma № 7 -09
Gazetani
Ma'suda
IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Jamila
ERDONOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75